



O'ZBEKISTON VA BELARUS YILLAR SINOVIDAN O'TGAN DO'STLIK

Farhod Ismatullayev
TDPU Tarix fanlari doktori
Rajabova Sabina
TDPU Tarix fakulteti 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi va Belarus Respublikasi o'rtaqidagi diplomatik munosabatlar o'rnatilish tarixiga hamda hamkorlikning asoslarini shakllantirish va rivojlantirishga bag'ishlangan. Maqolada shuningdek, O'zbekiston va Belarus o'rtaida iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ilmiy-texnika sohasidagi hamkorliklari muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: hujjat, strategik, MDH, BMT, memorandum, bitim shartnoma, integratsiya, manfaatli hamkorlik, xalqaro hamkorlik

XXI asr yuqori darajadagi axborot va integratsiyalashuv asri. Bu davrga kelib insoniyat hayoti barcha jabhalarda yuksak o'rirlarga ko'tarildi desak mubolag'a bo'lmaydi. Ammo bu o'zgarishlar o'zi bilan bir qator yangidan-yangi ijtimoiy munosabatlarning vujudga kelishiga turki bo'lmoqda. o'rtaqidagi integratsiyalashuv kengaydi. Millatlar mavjud ekan ular Davlatlararo'rtaida turli munosabatlar ham mavjud. O'zbekiston mustaqillikka erishgan ilk kunlardan boshlab milliy manfaatlariga mos keladigan faol tashqi siyosat olib bormoqda. O'zbekiston mustaqil davlat faoliyatining asosiy turi hisoblangan xalqaro xamkorlikka katta e'tibor qaratmoqda. Mustaqillik yillarining boshlaridanoq Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi tashkilotiga a'zo mamlakatlar bilan har tomonlama hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'ydi. Bu mamlakatlar orasida Belarus Respublikasi alohida ajralib turadi. O'zbekiston uchun Belorus bilan hamkorlik Sharqiy Yevropa mamlakatlari bilan iqtisodiy aloqlarini rivojlantirishga hamda tashqi faollik yo'nalishlarini yanada kengayishiga imkon yaratar edi. O'z navbatida Belorus uchun ham O'zbekiston va MDH davlatlari bilan hamkorlik uning manfaatlariga mos tushar edi.

Belarus Sharqiy Yevropadagi mamlakat bo'lib, uning maydoni 207,6 ming kv.km. Aholisi esa 9 million kishi. Asosiy aholisi-belarus, ruslar, shuningdek, polyak, ukrain va tatarlar ham istiqomat qiladi. Poytaxti- Minsk shahri. Belarus Respublikasi unitar davlar hisoblanadi. Boshqaruv shakli- Prezidentlik respublikasi. Davlat rahbari har 5 yilda saylanadi. 1996-yilgi referendumda qabul qilingan Konstitutsiya amal qiladi. U industrial-agrar mamlakatdir. Amaldagi Prezidenti Aleksandr Lukashenko. Shuningdek, BMT, MDH kabi tashkilotlarga a'zo.

O'zbekiston va Belarus munosabatlarining paydo bo'lishi o'tgan asrning eng qiyin paytlariga to'g'ri keladi. Bu ikki mamlakat xalqlarining do'stona munosabatlari shonli tarixga ega deb ayta olamiz. Dunyo xalqlariga eng og'ir musibatlarni olib



kelgan Ikkinchı Jahon urushi vaqtida bir tomonda bir tan-u bir jon bo‘lib fashistlarga qarshi mardonovor jang qilishgan. Xususan Brest viloyatini himoya qilishda belarusliklar bir qatorda o‘zbeklar ham ishtirok etishgan. Bugungi kunda mutaxasislar 1941-1945-yillarda ushbu mamlakat hududidagi janglarda ishtirok etgan ming nafardan ortiq o‘zbek askarlarining ismlarini aniqlashga muvafaq bo‘lgan. Arxiv ma’lumotlariga qaraganda 1966-yil 26-aprelda Toshkentda kuchli zilzila bo‘lib juda katta talofat yetkazadi. Belarus tabiiy ofatni bartaraf etishda Toshkentga ikki mingga yaqin quruvchi, ustalarni jo‘natganligi aytildi. O‘scha vaqtlardan boshlab hamkorlik aloqalari yo‘lga qo‘yilgan.

Sovet Itifoqidan mustaqillikka erishgan O‘zbekiston va Belarus mustaqillikning boshlaridanoq mustaqil hamkorliklariga asos soldi. Jumladan, Belarus Respublikasining Oliy Kengashi Raisi S.Shushkevichning 1991-yil 6-noyabrdagi O‘zbekiston Respublikasiga rasmiy davlat tashrifida „O‘zbekiston Respublikasi va Belarus Respublikasi o‘rtasidagi davlarlarao munosabatlarning asoslari to‘g‘risidagi“ shartnoma imzolandi.¹ Bu Belarus Respublikasi bilan imzolangan ilk hujjat edi. Haqiqiy diplomatik munosabatlar 1993-yil 21-yanvarda Belarus Respublikasi va O‘zbekiston Respublikasik o‘rtasidagi davlatlararo munosabatlar asoslari to‘g‘risidagi protokol imzolangan keyin o‘rnatildi. Belarus Respublikasining O‘zbekistondagi elchixonasi 1994-yil fevral oyida ochildi. O‘zbekistonning elchixonasi esa 2018-yildan o‘z faoliyatini olib bormoqda. Davlatlar o‘rtasida hamkorlik aloqalarini rivojlanishiga davlat rahbarlari va rasmiy davlat tashriflarning ahamiyati kattadir.

Jumladan, 1994-yil 21-22-dekabr kunlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining taklifiga binoan Belarus Respublikasi Prezidenti Aleksandr Lukashenko rasmiy tashrif bilan Toshkentda bo‘ldi.Ushbu tashrif davomida davlatlararo, hukumatlararo, hamda har ikki davlat vazirlik va idoralari o‘rtaisa 18 ta hujjat imzolandi.² Bu tashrifni Aleksandr Lukashenko buyuk mutafakkir shoir Alisher Navoiy xotirasini yod etishdan boshlagan edi. Shundan so‘ng Islom Karimov Belarus Prezidentiga shahardagi diqqatga savovor joylarni ko‘satar ekan, 1966-yilgi zilziladan keyin belaruslik quruvchilar o‘zbekistonlik birodarlari uchun katta ko‘mak bergenini aytib minnatdorchilik bildirdi. Shundan so‘ng asosiy muzokalar boshlandi. Ikki davlat o‘rtasida do‘stlik va hamkorlikni yanada mustahkamlash haqidagi Deklaratsiya hamda mamlakatlarimiz o‘rtasida madaniya va san’at sohasida hamkorlik qilish to‘g‘risidagi shartnomaga Prezidentlar imzo chekdi.O‘zbekiston Respublikasi va Belarus Respublikasi o‘rtasida daromad va mulklardan ikki tomonlama o‘zaro soliq olmaslik, avtomobil, temir yo‘l, havo yo‘li va pochta aloqasi bo‘yicha hamkorlik hamda 1995-yilga mo‘ljallangan savdo-

¹ Xalq so‘zi. №18. 1991-yil 8-noyabr 1-bet

² Договор между Республикой Беларусь и Республикой Узбекистан о сотрудничестве в области культуры и искусства. // ЭТАЛОН. Международные договоры / Нац. центр правовой информ. Респ. Беларусь.-

Минск,2018. (Agreement between the Republic of Belarus and the Republic of Uzbekistan on cooperation in the field of culture and art. //STANDARD. International treaties / Nat center of legal inform. Rep.Belarus- Minsk ,2018.)



iqtisodiy hamkorlik to‘g‘risidagi hukumatlararo hujjatlarga O‘zbekiston Bosh vazir o‘rinbosari Yu.Paygin hamda Belarus Bosh vaziri o‘rinbosari V.Kokorev imzo qo‘ydi.³ 1994-yildagi Aleksandr Lukashenkoning amali tashrifi va bu tashrif davomida imzolangan shartnomalar O‘zbekiston-Belarus munosabatlarining ibtidosi edi.

Belarus Respublikasi bilan hamkorlikni rivojlanyirish O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosatida muhim o‘rin tutdi. O‘tgan yili mamlakatimiz diplomatik munosabatlar o‘rnatilganiga 30 yil to‘ldi. Ushbu tarixiy davrida Toshkent va Minsk o‘rtasida chinakam yaqin, ishonchli aloqalar o‘rnatishga muvafaq bo‘ldi. Ushbu yillar davomida siyosiy, savdo-iqtisodiy, gumanitar sohalarda o‘zaro manfaatli aloqalarni mustahkamlash va yanada kengaytirishda katta muvafaqqiyatlarga erishdi. O‘tgan 6 yil davomida ikki marta o‘zaro rasmiy tashriflar amalga oshirildi. Xususan 2018-yil sentabr oyida Belarus Prezidenti Toshkentga, 2019-yil avgust oyida O‘zbekiston rahbari Minskka tashrif buyurgan edi. Bundan tashqari ikki davlat rahbarlarining MDH, ShHT va boshqa davlatlarda ikki tomonlama ushrashuvlar muntazab o‘tkazib kelinmoqda. Mamlakatlarimiz orasidagi turli darajadagi delegatsiyalar almashinuvi ham yuqori suratga ega bo‘ldi. 2017-yildan buyon 150 dan ortiq ikki tomonlama tashriflar amalga oshirildi va ularning soni ortib bormoqda.

Oxirgi ikki yil ichida Belarus Bosh vaziri R. Golovchenko Toshkentga ikki marta tashrif buyurdi. 2022-yilda O‘zbekiston Bosh vaziri Abdulla Aripov Minskka tashrif buyurdib. Ikki tomonlama hamkorlik bo‘yicha hukumatlar o‘shma komissiya orqali ishlar muvafaqqiyatlari amalga oshirilmoqda. 2023-yil sentabr oyida Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Narboyeva boshchiligidagi O‘zbekiston parlament delegatsiyasi Minsk shahriga tashrif buyurdi. Uchrashuvda oliy palatalar, yoshlar parlamentlari, xotin-qizlar institutlari o‘rtasida hamkorlik memorandumlari imzolandi⁴. Mana shunday tashriflar davomida O‘zbekiston va Belarus parlamentlari tomonidan hamkorlikni chuqurlashtirish bo‘yicha kelishuvlarni amalga oshirmoqda. Ayniqsa O‘zbekiston Belarus hamkorligi rivojlanishining bayrog‘i bu savdo iqtisidiy va sarmoyaviy sheriklikdir, bu esa tovar ayirboshlashning muntazam o‘sishiga olib kelmoqda. Belarus Respublikasidan import qilinadigan mahsulotning asosiy qismini oziq-ovqat, transport uskunlari tashkil etadi. Toshkent va Minsk „Janubiy Osiyo sig‘imli bozorlar“ yo‘nalishida yuk tashish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, xalqaro avtomobil tashuvchilarni tayyorlash multimodal transport yo‘laklaridan birgalikda foydalanishga e’tibor qaratayapti. Belarus O‘zbekistonni ayrim mahsulotlar uchun Markaziy va Janubiy Osiy mintaqalariga kirish eshigi sifatida qaraydi.⁵ Bunday katta rejalar amalga oshishi uchun siyosiy iroda zarur.

³ Xalq so‘zi. №250. 1994-yil 23-dekabr. 1-bet

⁴isrs.uz

⁵ Jamestown.org



Davlatlarimiz hukumatlari bu rejani amalga oshishi uchun zarur barcha imkoniyatlardan foydalanadi.

Farmatsevtika sohasida ham sezilarli ishlar amalga oshirildi. Bugunki kunda Toshkent va Minsk birgalikda dori vositasi ishlab chiqarmoqda. Kelajakda ishlab chiqarilayotgan farmetsevtika mahsulotlarini ro‘yxatini kengaytirish rejalashtirilgan. Bunday ko‘p tomonlama hamkorlik O‘zbekiston va Belarus milliy sanoat rivojiga xizmat qilishi, yangi ish o‘rnlari yaratishi, davlatlar bozorlariga birgalikda chiqish imkoniyatini kengaytirishi shubhasiz.

Ikki tomonlama munosabatlarning ma’naviy rishtasi bugungi kunda o‘rnatalgan madaniy-gumanitarmuloqotdir. O‘zbekiston-Belarus aloqalarining ko‘p qirraligi Ikki madaniyatning o‘zaro boyishi va xalqlarimizning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida hal qiluvchi ro‘l o‘ynagan tarixiy jarayonlarning kesishishi bilan oldindan belgilanadi. Madaniy almashinuvlar muntazam tadbirlarga aylandi. Gumanitar aloqalarni mustahkamlashda Belarus hududida o‘tkazilayotgan „O‘zbekiston san’ati va madaniyati kunlari“ O‘zbekistonda „Belarus madaniyati va kinosi kunlari“ alohida o‘rin tutadi. Bunda ikki davlat o‘ziga xosdir. Ikki davlat munosabatlarida madaniyat, an’ana, urf-odatlarga o‘zaro hurmat, bir-birining ma’naviy mohiyati va mentalitetini tushunishga intilish muhim ahamiyat kasb etadi. Ikki mamlakat xalqlari o‘rtasida milliy xususiyatlarni, madaniyat, san’at, kino, teatr, adabiyotni o‘rganishga qiziqish sezilarli darajada oshmoqda. Quvonarlisi shundaki, ikki mamlakat xalqlarining bir birining madaniyatiga bo‘lgan hurmatida. Bir-birini e’tirof etib, aloqlarni yanada mustahkamlab boryapti. Toshkentda Belarus adabiyotining atoqli klassigi Yakub Kolas sharafiga ko‘cha nom berilgani, haykal o‘rbatilganligi e’tiborlidir. Minskdagi bog ‘larning birida buyuk o‘zbek shoiri, mutaffakkiri va davlar arbobi Alisher Navoiyning byusti o‘rnatalgan. 2023-yilda „O‘zbek“ Belarus-O‘zbek qoshma filmining premyerasi bo‘ldi.,, Yoqub Kolas:Toshkent borligi kitobi“ hujjatli filmining suratga olish ishlari davom etmoqda. Madaniy sohadagi eng muhim voqealardan yana biri shundaki 2023-yilda Belarussiyaning xorijiy davlatlar bilan do’stlik va madaniy aloqalar jamiyatni tarkibida O‘zbekiston madaniyati, tarixi va an’analari bilanyaqindan tanishish maqsadida tashkil etilgan „Belarus-O‘zbekiston“ jamiyatining tashkil qilinganligidir.

Belarus Respublikasida muhandislik va tezniqa yo‘nalishlari juda yaxshi rivojlangan. O‘zbekiston ham shuni hisobga olgan holda talabalar almashinuvini kelishilgan holda yo‘lga qo‘ydi. Birgina so ‘ngi 4 yil ichida Belarus oliv o‘quv yurtlarida tahsil olayotgan o‘zbekistonlik talabalar soni 400 dan 2 ming kishiga ko‘paydi. Bundan tashqari bugungi kunda 80 dan ortiq qoshma talim dasturlari amalga oshirilmoqda. O‘zbekistonlik talabalar Xitoydan keyin eng kop aynan Belarusda ta’lim olmoqda. Bu esa yaratilgan sharoit va imkoniyatlarning natijasidir. O‘zbekiston va Belarus turizm sohasida hamkorlik qilish uchun noyob imkoniyat va salohiyatga ega. Ikki mamlakat sayyoqlik sohasi vakillari ikki mamlakatda tashkil etilgan korgazma maydonchalari doirasida yaqin hamkorlik amalga oshirilmoqda



Ikki mamlakat turizm sohasi operatorlari ishtirokida 2020-yilda tashkil etilgan Turizm forumlari yakunlari bo‘yicha amaliy natijalarga erishildi. Umumiy sa‘y harakatlar tufayli Belarusdan mamlakatimizga sayyoohlar oqimi 2017-yildan 2023-yilgacha 5 barobar oshib, bugungi kunda 15 ming kichidan oshdi. Vatanimizning tarixiy yodgorliklar albatta belaruslik e’tiboridan chetda qolmagan.

Mamlakatlarimiz o‘rtasidagi muhim voqealardan biri Shavkat Mirziyoyev taklifiga binoan Aleksandr Lukashenko 2024-yilning 7-fevral kuni mamlakatimizga tahrif buyurdi. 8-fevral kuni esa rasmiy kutib olish marosimi bolib otdi. Shundan song muzokaralar boshlandi. Davlatimiz rahbari uchrashuvni ochar ekan, keying yillarda O‘zbekiston va Belarus o‘rtasidagi kopqirrali munosabatlar sifat jihatidan yangi, yanada yuqori bosqichga ko‘tarilganligini alohida ta’kidladi. Belarus Prezidenti ushbu tashrifga tayyorgarlik doirasida qator tadbirlar, shu jumladan Hukumatlar komissiyalar yig‘ilishi, tibbiyat xodimlari forumlari, parlamentlar vazirliklar va hududlar darajasidagi faol aloqalarni davom ettirish muhimligini qayd etdi. Tomonlar xalqaro tuzilmalar shu jumladan Birlashgan Millatlar Tashkiloti, MDH va ShHT doirasidagi siyosiy muloqot va o‘zaro qo‘llab quvvatlashni davom ettirishga ahslashib olishdi. Tomonlar faol madaniy-gumanitar almashinuvni davom ettirishga kelishildi. Oliy va professional ta’lim sogliqni saqlash, madaniyat turizm, sport sohalarda sheriklikni rivojlantirish dasturlari qabul qilindi. Bundan tashqari tashrif doirasida 2024-yilda O‘zbekiston Respublikasi va Belarus Respublikasi xududlari delegatsiyalarining o‘zaro tashriflari reja jadvali ham imzolandi.⁶ Ikki malakat o‘rtasida barcha darajasidagi muloqotlar faollandashgan, tovar ayirboshlash hajmidan tortib madaniy-gumanitar, tog‘ridan-tog‘ri aviqatnovlarga. Beralus bilan tashqi aloqalarning afzalligi shundaki, ikki mamlakat ham yirik integratsion tashkilotlar ya’ni MDH va ShHTda muloqot olib boradi. Bu tashkilotlar doirasida muloqotlarni mustahkamlashga tomonlarning intilishi qat’iy. Bir-birini qo‘llab-quvvatlashga tayyor.

Shuni mammuniyat bilan ta’kidlash o’tish joizki, bugungi kunda ikki davlar ochiqlik va ishonch ruhida keljakka ko‘z tikib vaqt sinovidan o’tgan uzoq muddatli do’stona munosabatlarini rivojlantirishni davom etmoqda. Umuman olganda Belarus-O‘zbekiston ikki tomonlama dinamikasi Yevroosiyoda kechayotgan geostrategik o‘zgarishlarni aks ettiradi, bu boshqa narsalar qatori postsoviet hududidagi hamkorlik rejalariga ta’sir korsatadi. Sovet ittifoqi parchalangandan keyin shakllangan ba’zi institular va munosabatlar bugungi kunda ahamiyatsiz bolib qo’lgan bo’lsa, boshqalari uyg’onishni boshidan kechirmoqda. Bu so’nngi holatlar uchun Minsk va Toshkentda bo’lgani kabi sovet o’tmishini butunlay ochirib, o’zlari uchun butunlay yangi dunyo qurish uchun zamin yaratadi.

O‘zbekiston xalqaro munosabatlarda xorijiy davlatlar bilan teng huquqli o‘zaro foydali hamkorlik o’rnatish o‘z tashqi siyosatining asosiy yo’nalishlardan biri sifatida belgilab oldi. Ushbu holatdan kelib chiqqan holda ikki davlat o‘rtasida

⁶ Xalq so‘zi 2024-yil 9-fevral № 30 (8653)



munosabatlarning huquqiy asosi shakllanishida ham oz ifodasini topdi. Bu esa mamlakatlar ortasida iqtisodiy, madaaniy , ilmiy-texnik hamkorlikni rivojlantirish uchun zamin yaratdi. Bugungi kunda mamlakatlarimiz har sohada mustahkam aloqalarni yo'lga qo'yib rivojlanishni davom etmoqda.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. Xalq so‘zi. №18. 1991-yil 8-noyabr 1-bet
2. Договор между Республикой Беларусь и Республикой Узбекистан о сотрудничестве в области культуры и искусства. // ЭТАЛОН. Международные договоры / Нац. центр правовой информ. Респ. Беларусь.- Минск,2018. (Agreement between the Republic of Belarus and the Republic of Uzbekistan on cooperation in the field of culture and art. //STANDARD. International treaties / Nat center of legal inform. Rep.Belarus- Minsk ,2018.)
3. Xalq so‘zi. №250. 1994-yil 23-dekabr. 1-bet
4. isrs.uz
5. jamestown.org
6. Xalq so ‘zi 2024-yil 9-fevral № 30 (8653)